

AVTOTRANSPORT VOSITALARINI O'G'IRLASH VA OLIB QOCHISH JINOYATLARINING JINOIY-HUQUQIY TAVSIFI

Jabborov Zokirjon Qodirjanovich

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Tergov faoliyati" kafedrasi professor
vazifasini bajaruvchi yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent.**

Yuldoshev Azizbek Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 324-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15624998>

Annotatsiya. Maqolada transport vositasini o'g'irlash va olib qochish jinoyatining tushunchalari, jinoiy-huquqiy tasiflari, bu turdagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun javobgarlik, jinoyat qonunchiligidagi ayrim muammolar, ularning yechimlari bo'yicha olimlarning fikrlari ilmiy jihatdan ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mualliflar tomonidan bu turdagi jinoyat uchun qonunchilikda belgilangan normadagi ayrim kamchiliklar yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

Avtomobil, transport vositasi, maxsus avtotransport, o'zgalar mulki, jinoyat, olib qochish, o'g'irlik, talonchilik, bosqinchilik, o'zgalar mulkini talon-taroj qilish, jinoyat obyekti, jinoyat subyekti, xavfsizlik, egalik qilish, aldash, yo'l harakati, tezkor-qidiruv tadbirlari, ma'lumot, jinoiy javobgarlik, ichki ishlar organlari bo'linmalari.

Avtomobil hozirgi kunda aloqani amalga oshirish hamda yuk va odam tashishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu bilan avtotransport aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Dunyoda birinchi o'g'irlangan mashina "Peugeot" mashinasi ekanligi hamma ma'lum haqiqatdir. Biroq, birinchi avtomobilni o'g'irlash holatlarining bir nechta tasmollari mavjud, ular bir-biriga ziddir. Asosiy tasmolga ko'ra, "Peugeot" egasi Julian Beronning shaxsiy mexanigi tomonidan o'g'irlangan bo'lishi mumkin degan tasmol ilgari surilgan. Olib borilgan qidiruvlar davomida mashina tezda topilgan, chunki o'sha paytda butun Parij avtoparki eng ko'pi bilan o'nta mashinadan iborat bo'lgan¹.

Hozirgi kunda avtotransport vositalari ko'payishi bilan ularning, shuningdek ulardagi tegishli qismlarining o'g'irlanishi va olib qochilishi borgan sari keng tarqalmoqda².

Avtotransport vositalarini o'g'irlash va olib qochish katta shaharlarga xos jinoyat turidir. Bunga shaharlarda avtomobillar va transport vositalarining jadal rivojlanib borish jarayoni, odamlar hayotida avtomobillar ahamiyatining ortib borishi, ushbu katta qiymatga ega mulkka jinoiy qiziqishning yuqoriligi sharoit yaratmoqda. Avtotransport vositalarining turli tajovuzlardan himoyalanganligi ayrim hollarda olib qochish uchun urinishni keltirib chiqarishi mumkin³.

O'zbekiston Respublikasida transport harakatining huquqiy va tashkiliy asoslari, harakat

¹ Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.

² Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.

³ Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга ҳилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. "Талқин ва тадқиқотлар" Республика илмий-услубий журнали 10сони. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

tartibi va xavfsizligi O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksi; "Avtomobil transporti to'g'risida"gi 1998-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni; "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi 1999-yil 15-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni; "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi 2013-yil 10-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrda VMQ-370-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalar" va boshqa normativ hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Tadqiqotlar davomida o'tkazilgan o'rganishlarning natijasiga ko'ra, avtomobil yoki boshqa transport vositasini qonunga xilof ravishda olib qochish bilan bog'liq jinoyatlarning hozirgi kun holati va dinamikasi bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mavjud jinoiy-huquqiy choralar yetarli emas degan xulosa kelish mumkin.

Ko'plab taniqli olimlar jinoyat qonunchiligini tartibga solishdagi mavjud bo'shliqlarni va avtomobilni yoki boshqa transport vositalarini noqonuniy olib qochish jinoyatini kvalifikatsiyasini, shuningdek, uni tegishli jinoyatlardan farqlash va olib qochishning individual belgilarini huquqiy baholash masalalarini o'z ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqqanlar, misol uchun:

D.N.Zaripov,

A.V.Arendarenko, V.S.Chukanov, L.R.Avetisyan, K.P.Ansiferov, A.A.Bogdanov, A.V.Kozun, V.V.Ivanova, G.N.Borzenkov, G.V.Ishchuk bu turdagi jinoyatlarni sodir etish sabab va sharoitlarini, jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish borish borasidagi muammolarni ko'rib chiqishgan.

Shu bilan birga, ushbu va boshqa ko'plab mualliflarning ilmiy ishlarida o'g'rilikka qarshi kurash bo'yicha jinoyat siyosatining umumiy yo'nalishlari tahlil qilinganiga qaramay, jinoiy-huquqiy tartibga solish va avtomobil yoki boshqa transport vositasiga qonunga xilof ravishda egalik qilish jinoyati kvalifikatsiyasining ko'plab muammolari o'rganilmagan⁴.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi transport vositalarini olib qochish jinoyatiga qarshi kurashni ko'zda tutuvchi eng asosiy huquqiy manbalardan biridir. Chunki, aynan ushbu qonunda transport vositalarini olib qochish jinoyati jinoyat sifatida e'tirof etilib qonun chiqaruvchi tomonidan alohida modda bilan belgilangan. O'z navbatida Jinoyat kodeksi nafaqat transport vositalarini olib qochish jinoyatiga, balki boshqa barcha turdagi jinoyatlarga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining asosiy vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Avtomobil yoki boshqa transport vositalariga noqonuniy egalik qilish o'g'irlik sodir etish maqsadida avtomobilni olib qochish jinoyati o'zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlar turkumiga kiradi. Ushbu jinoyatning obyekti o'zgalar mulki hisoblanadi.

Qonunda transport vositasini olib qochish jinoyati "Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" turkumiga kiradi. Bu o'g'irlik qilish maqsadini ko'zlamagan holda transport vositasini qonunga xilof ravishda egallab olishdir. Agar avtotransport vositasini egallab olishdan ko'zlangan maqsad uni o'g'irlash bo'lsa, bunday

⁴ Ш.Ш.Суюнов. Ходиса содир бўлган жойни қўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. "Замонавий дунёда педагогика ва психология" номли Республика илмий-амалий конференцияси.

jinoyat o'g'rilik deb ta'riflanadi.

Transport vositalari tushunchasi O'zbekiston Respublikasining Avtomobil transporti to'g'risida qonunida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda berilgan.

avtomobil transporti – tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochmani avtomobilda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui;

avtotransport vositalari-yo'lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Avtotransport vositalari yo'lovchilar avtotransporti, yuk avtotransporti va maxsus avtotransport vositalariga bo'linadi.

Yo'lovchilar avtotransporti vositalari jumlasiga avtobuslar, mikroavtobuslar, yengil avtomobillar, yo'lovchilar tashiladigan tirkamalar va yarim tirkamalar kiradi. Yuk avtotransporti vositalari jumlasiga yuk avtomobillari, shatakchi avtomobillar, tirkamalar va yarim tirkamalar kiradi.

Konstruktiv jihatlari hamda qay maqsadlarda foydalanilishiga ko'ra yuk avtotransporti vositalari umumiy va maxsus transport vositalariga bo'linadi.

N.Xasanova transport vositalariga quyidagicha ya'ni "Transport vositalariga, jumladan, temir yo'l, suv va havo transporti, avtomobil transporti, shuningdek, mototsikl, moped, velosiped, ot-ulov va shu kabilarni kiritish mumkin. Maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan transport vositalari jumlasiga yo'l yotqizish, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarni bajarish uchun ixtisoslashtirilgan mashinalar (ekskavatorlar, greyderlar, avtokranlar, skreperlar, avtoyuklagichlar) kiradi" deb ta'rif bergan. Jumladan, maxsus avtotransport vositalari jumlasiga turli maxsus ishlarni, ko'proq notransport ishlarini bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, tirkamalar va yarim tirkamalar (o't o'chirish avtomobillari, kompressor qurilmali avtomobillar, avtokranlar, supurish-sidirish hamda chiqindi tashish avtomobillari va hokazolar) kiradi.

Yuridik adabiyotlarda transport vositalari deganda yengil va yuk avtomashinalarning barcha turi, avtobuslar, maxsus mashinalar, traktorlar, trolleybuslar, tramvaylar, dvigatelining ish hajmi 50 sm³ dan kam bo'lmagan mototsikl va motorollerlar, yo'l qurilishi, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan o'ziyurar mashinalar (ekskavator, buldozer, avtopogruzchik, greyder, avtokran va boshqalar) tushuniladi deb ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, transport vositalarini o'g'irlash va olib qochish g'arazli jinoyatlar turkumiga kiradi. Ularning obyekti fuqarolarning shaxsiy mulkchilik munosabati, jinoiy tajovuzning predmeti esa shaxsiy yoki davlat mulkining muhim va qimmatli ashyolaridan biri – avtotransport vositasi hisoblanadi⁵.

Avtotransport vositasini o'zboshimchalik bilan olib qochishda huquqbuzar shaxs harakat xavfsizligiga tajovuz qiladi.

Ayni vaqtda mulkchilik huquqi buziladi. Agar olib qochish vaqtida aybdorning qasdi, shuningdek transport vositasidan boshqa jinoyatlar (yuklarni o'g'irlash, talonchilik, bosqinchilik va boshqalar)da foydalanishga qaratilgan bo'lsa, huquqbuzarning harakatlari

⁵ Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фош қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.

ushbu jinoyatlar majmui bo'yicha tavsiflanadi.

Ko'rib chiqilayotgan harakatning obyektiv tomoni transport vositasiga noqonuniy egalikda ifodalanadi, bu uning egasining irodasi va roziligiga qarshi vaqtincha foydalanishga o'tkazilishini anglatadi. Egalik qilish yashirin, aldash yoki ochiq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ochiq egalik avtomobil egasiga qarshi tahdid yoki zo'ravonlik foydalanish bilan birga bo'lishi mumkin⁶.

Mazkur holatni biz quyidagi misolda ko'rib chiqishimiz mumkin: "X" ismli yo'lovchi sifatida taksida harakatlanib, haydovchining bo'yniga pichoq tirab va uni belgilangan joyga olib borishni talab qiladi. Misoldan ko'rinib turibdiki, "X" o'z harakatlari bilan taksi haydovchisini mashinasini tasarruf etish imkoniyatidan mahrum qildi va haqiqiy zo'ravonlik tahdidi ostida uning irodasiga qarshi uni ko'rsatgan yo'nalishda harakat qilishga majbur qiladi, ya'ni u aslida transport vositasini egallab oldi. Bizning fikrimizcha, bunday holatda "X" harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 267-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Amaliyotda ayrim hollarda esa bu kabi holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Ushbu qonunbuzarlikning kvalifikatsiyasi avtomobilni va boshqa transport vositasini noqonuniy egalik qilishda maqsad o'g'irlik qilish bo'lmaganligi sababli ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. "O'g'irlik maqsadini ko'zlamay" va "o'g'irlik maqsadda" o'rtasidagi chegaralarni amalda belgilash ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Haqiqatan ham bu jinoyatni isbotlash bilan bog'liq muammolar hozirda mavjud.

Bu turdagi jinoyatni suyehti to'g'risida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, transport vositalarini olib qochish jinoyatiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini tadqiq qilgan olim L.G.Shaybazyanning fikricha transport vositasini olib qochish jinoyatining subyekti muassasa, tashkilot, korxonalarga tegishli transport vositalaridan ruxsatsiz foydalanish, unga egalik qilish va tasarruf etish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 263, 267-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning subyekti o'n to'rt yoshga to'lgan, to'lgan shaxs hisoblanadi.

Avtomobil yoki boshqa transport vositasini noqonuniy egalik qilish, olib qochish jinoyatining qonunchilikdagi ta'rifi, ayniqsa sud va tergov amaliyotiga jinoyatning kvalifikatsiyasini belgilashda ayrim muammolarni yuzaga kelishiga olib keladi, bu esa olib qochish jinoyatini tugallanganligini aniqlash bilan bog'liq noaniq yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keladi⁷.

Avtotransportni olib qochish uni o'g'irlashga qaraganda kamroq sodir etiladi. Ushbu jinoyatlarga qarshi kurash tajribasining ko'rsatishicha, ularning nisbati o'rtacha 1/3ga to'g'ri keladi. Bizning fikrimizcha, o'g'irlik va olib qochishlar asosan yakka foydalanuvchilarning transport vositalariga nisbatan sodir etiladi, chunki ular davlat va jamoatga qarashli hamda odatda qo'riqlanadigan avtokorxonalar (avtobus va taksomotor parklari, avtobazalar, garajlar)da saqlanadigan davlat va jamoat transportiga qaraganda kamroq himoyalangandir.

Transport vositasining ko'rinishi jinoiy tajovuz obyekti sifatida uning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu avtomobil yoki boshqa transport vositasining narxiga va uning mustaqil

⁶ Ш.С.Агоев., Шакирова С. Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

⁷ Н.Қ.Усманиев. Байназов Ж. Ўғирлик жинояти бўйича ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг янги усуллари //Наука и инновации в системе образования. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 69-74.

ravishda harakat qilish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, jinoyatchiga jinoyat joyidan tezda yashirinishga imkon beradi.

Transport vositalarini o'g'irlash va olib qochishning yil oylari bo'yicha taqsimlanishi, ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu jinoyatlarning aksariyati aprel oyidan sentabr oyigacha sodir etiladi. Mazkur holat shu bilan bog'liqki, jinoyatchilar odatda transport vositalarini o'g'irlash va yashirishga murakkab tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar. Bu esa qulayroq vaziyat bo'lishini talab qiladi. Vaziyat esa qishda aksariyat yakka foydalanuvchilarning transport vositalari konservatsiya holatida bo'lishi, shuningdek ushbu vositalarni haydab ketish yoki transportirovka qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar sababli qiyinlashadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, olib qochishlarning aksariyati soat 18:00dan 24:00gacha, o'g'riliklar esa kechqurun 18:00dan ertalab 6:00gacha sodir etiladi. Bu shu bilan bog'liqki, kechqurun va tunda ayrim ko'chalar yaxshi yoritilmaydi va bu vaqtda ko'chada fuqarolar kam bo'ladi. Umuman olganda, jinoyatchilarning transport vositalarini qonunga xilof tarzda egallab olishda foydalaniladigan usullarini uchga bo'lish mumkin:

- yopiq garajlardan sodir etish, bunda olib qochuvchilar turli buzish qurollaridan, masalan, qulflarni buzish uchun turli vositalar, signalizatsiyani olib tashlash uchun skanerlar va shu kabilardan foydalanadilar;

- ochiq ko'chalarda sodir etish;

- haydovchilar yoki avtomobil egalari bo'lgani holda, buning ustiga ko'pincha ularga nisbatan kuch ishlatib yoki kuch qo'llash bilan tahdid qilib sodir etish.

O'g'riliklar asosan texnik moslamalardan foydalangan holda sodir etiladi, olib qochish esa ko'pincha tamballovchi vositalarni buzish uchun maxsus vositalarni qo'llamagan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, amaliyotda transport vositasi saqlanadigan joyga kirish va uni olib qochish uchun maxsus tayyorlangan qurollardan foydalangan hollar ham ma'lum, bu avtomobilga o'rnatilgan signalizatsiyani elektron tarzda buzish, eshiklarni mustaqil ravishda (kalitsiz) ochish va dvigatelni ishga tushirishga qodir elektron vositalardir.

Masalan, jinoyatchilar standart qulflar hamda olib qochishga qarshi vositalarning murakkab bo'lmagan texnologiyalarini yaxshi o'rganib va o'zlashtirib, kalitlarni tanlash yoki yasash, olib qochishga qarshi vositalarni arralash yoki o'chirish orqali avtomobil saloniga osonlik bilan kirib oladilar⁸.

Transport vositalarini olib qochish va keyinchalik ulardan boshqa jinoyatlarda foydalanish maqsadida transport vositalarini niqoblash chog'ida jinoyatchilar davlat raqamlarini deyarli yechmaydilar, bu bilan ular keyinchalik jinoyatning fosh etilishini qiyinlashtiradilar⁹.

O'g'irlangan avtomobillarni esa jinoyatchilar keyinchalik sotish maqsadida ehtiyot qismlariga ajratib tashlashga harakat qiladilar. Jinoiy faoliyatning eng muhim elementlaridan biri, kriminologik jihatdan, jinoyatchining shaxsi (jinoyat subyekti) hisoblanadi. Bu shu bilan

⁸ А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

⁹ Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фoш қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.

bog'liqqi, gumon qilinuvchilarga xos turli shaxsiy xislatlar ularning jinoyat sodir etish usullarini tanlashlariga jinoyatga qadar, jinoyat vaqtida va undan keyingi xatti-harakatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xususiyatlarni bilish qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'nalishini to'g'ri tanlashga, tusmollarni ilgari surishga, ayrim tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish taktikasini belgilashga imkon beradi.

Avtotransport vositalarini o'g'irlash va olib qochish bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'zlarining yosh va kasbga xos xususiyatlariga, o'ziga xos kriminologik belgilariga ega.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jinoiy tajovuzlarning har beshtadan bittasi guruh tomonidan sodir etiladi. Ayni vaqtda olib qochishni yolg'iz jinoyatchilar ham sodir etishi mumkin. Odatda (22 % hollarda) o'g'irlash va olib qochishlar ikki nafar shaxsdan iborat guruh tomonidan sodir etiladi. Biroq bu ko'rsatkich haqiqiy ahvolni unchalik aniq aks ettirmaydi. Gap shundaki, o'rganilgan ishlarga ko'ra mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun 68 % hollarda faqat bitta gumon qilinuvchi javobgarlikka tortilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra guruh tarkibida (jumladan, kattalar ham bo'lgan) voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ulushi avtotransport vositalarini o'g'irlash va olib qochishlar orasida 40 % dan ortiqni tashkil qiladi.

Mazkur jinoyatlar subyektlarining yosh tarkibi asosan 20-35 yosh. Ushbu jinoyatlarni sodir etishda ko'pchilikni ishlaymaydigan (70 % dan ortiq) shaxslar tashkil qiladi, ilgari sudlanganlar esa (ikkala toifadagi jinoyatlar bo'yicha) 28-30%.

Olib qochishni sodir etish uchun qasd ko'p hollarda alkohol ta'sirida qarovsiz qoldirilgan transport vositasini ko'rganda yuzaga keladi. O'g'irlash esa ancha puxta o'ylab tayyorlanadi. Aksariyat olib qochuvchilar mahalliy aholi yoki qo'shni tumanlar aholisi bo'lib, bu joyni yaxshi biladilar. Buning ustiga 18% hollarda ayblanuvchilar jabrlanuvchilar bilan tanish bo'lgan yoxud ular bilan bir shahar-tumanda yashaganlardir¹⁰.

Tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar avtomobilni o'g'irlash maqsadisiz olib qochish faqat mulkka qarshi jinoyat sifatida tavsiflaydi. Misol uchun, L.G.Shaybozyan tadqiqotiga ko'ra, faqat 12 % hollarda transport vositasini olib qochish yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq edi; o'g'irlangan transport vositasini boshqaradigan shaxslarning atigi 16 % haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan; qonuniy transport vositasini boshqarayotgan shaxslar tomonidan sodir etilgan yo'l-transport hodisalari darajasi, olib qochilgan transport vositalarida sodir etilgan bunday hodisalarning ulushidan yuqori¹¹.

Bularning barchasi, L.G.Shaybozyanning fikriga ko'ra, o'g'irlashning ijtimoiy mohiyati aynan yo'l harakati xavfsizligi emas, balki ushbu jinoyatni sodir etishda zarar ko'radigan mulkiy munosabatlar va yo'l harakati xavfsizligi har doim ham zarar yetkazish xavfi ostida emas degan xulosaga shubha tug'diradi.

Avtotransport vositalarini o'g'irlash va olib qochishning oldini olishga qaratilgan choralar orasida texnik xususiyatga ega choralar, jumladan texnik himoya vositalari-transport vositalarini o'zboshimchalik bilan egallab olishga to'sqinlik qiluvchi moslamalar o'rnatilishini targ'ib qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday vositalarning samaradorligi ularning xilma-

¹⁰ Ш.С.Агоев., Шакирова С. Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

¹¹ Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

xilligi bilan bog'liq, ularning ayrimlari avtomobilga kirish uchun yengib bo'lmaz to'siq yaratadi, boshqalari dvigatelni ishga tushirishga to'sqinlik qiladi, yana boshqalari boshqaruv rulidan foydalanishga yoki tezlikni o'zgartirish tizimidan foydalanishga imkon bermaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, transport vositalarini o'g'irlash va olib qochishning jinoiy-huquqiy tavsifini aniqlash va puxta o'rganish bu turdagi jinoyatni oldini olish va fosh etish bo'yicha chora-tadbirlarini samarali hajmda maqsadga qaratilgan tarzda tashkil qilishi va o'tkazishiga real imkon beradi. Bu esa umuman olganda, ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 25.01.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // [Электрон манба].
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Т., 2009. – Б. 199.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.4. –Т., 2002. – Б. 47.
5. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.
6. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎЗР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.
7. Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015й.Б. 34-40.
8. Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24
9. Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10сони. 01.10.2022 йил Б. 105-109.
10. Ш.Ш.Суюнов. Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил
11. Ш.Ш.Суюнов. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси.
12. Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти

тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

13. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда жиноят ишини тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.

14. А.Т.Аширбоев. Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперткриминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.

15. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

16. А.Т.Аширбоев. Суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш институти: халқаро тажриба ва ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 37-42.

17. Н.Қ.Усманиев. “Оқилона муддат” тамойилини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.

18. Н.Қ.Усманиев. Жиноят ишини юритишни тўхтатиш ва тиклаш муддатлари билан боғлиқ айрим мулоҳазалар //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 40-47.

19. Н.Қ.Усманиев. Протсессуал муддатларнинг ҳисоблашда қўлланилувчи меъзонларнинг айрим жиҳатлари //проблемс анд солутсионс оф ссиентифис анд инновативе ресеарч. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 25-30.

20. Н.Қ.Усманиев. Байназов Ж. Ўғирлик жинояти бўйича ҳодиса содир бўлган жойни қўздан кечириш тергов ҳаракатининг янги усуллари //Наука и инновации в системе образования. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 69-74.

21. Ш.С.Агоев., Шакирова С. Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

22. Ш.С.Агоев., Абдухамидов А. Гувоҳлантириш тергов ҳаракатини ўтказишнинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 49-51.

23. Ш.С.Агоев., Асатуллаев Д. Ахборот технологиялари соҳасидаги ўғирлик жиноятларни тергов қилишнинг ўзига хос хусусиятлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 31-35.

24. Ш.С.Агоев., Ташев У. Экспертиза фаолиятининг арманистон республикаси жиноят-протсессуал қонунчилигидаги ҳуқуқий асослари //Развитие и инновации в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 48-56.

25. Хушвактова Н.А. Факторы, препятствующие эффективному использованию общественного участия в досудебном производстве / Н.А. Хушвактова // Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения: сб. ст. по материалам LXV Международной научно-практической конференции «Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения». – № 11(65). – Москва, Изд. «Интернаука»,

2022. DOI:10.32743/25419889.2022.11.65.346588

26. Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фош қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.